

QO'QON ADABIY MUHITI VAKILLARI**Yunusaliyeva Dilafruz Bahodirovna***Dang'ara tuman 2-son politexnikumi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi*

Qo'qon adabiy muhitining shakllanishi va rivojlanishi o'zbek adabiyoti tarixida muhim bosqich bo'lib, bu muhit nafaqat adabiy, balki ijtimoiy- ma'naviy jihatdan ham taraqqiyotga turtki bo'lgan. Bu muhit, ayniqsa Qo'qon xonligi davrida (1709-1876 yillar) kuchli rivojlangan va o'ziga xos ijodiy maktab sifatida tanilgan.

Qo'qon adabiy muhitining asosiy xususiyatlari: ijodiy faollik va adabiy markaz sifatida Qo'qon xonligi davrida adabiyot, san'at va ilm- fan - taraqqiy etdi. Xonlar, ayniqsa Muhammad Alixon va Umarxon adabiyotga xomiylik qilgan. Ular shoir va adiblarni moddiy va ma'naviy jihatdan qo'llab -quvvatlagan. Xon saroyida adib va shoirlar to'planib, ular orasida ilmiy-ijodiy muhokamalar, adabiy majlislar o'tkazilar edi.

Bu davrda mashhur adib va shoirlar ijod qildi. Masalan, Muhammad Umarxon "Amiriy" taxallusi bilan ijod qilgan bo'lsa, rafiqasi Nodirabegim "Komila" taxallusi bilan she'rlar yozgan. Munis va Ogahiy Xorazmda yashagan bo'lsa-da, ularning asarlari Qo'qon muhitida ham keng tarqalgan.

Gulxaniy -kulgi va tanqidiy she'rlari bilan mashhur bo'lib, 400 dan ziyod masalni o'z ichiga olgan "Zarbulmasal" asari muallifidir. Muqimiy, Furqat, Zavqiy, Uvaysiy, Dilshodi Barno kabi ijodkorlar fan va adabiyot taraqqiyotiga munosib hissa qo'shganlar.

Muqimiyning "Tanobchilar", "Sayohatnoma", Furqatning she'rlari, Zavqiyning "Ajab ermas", "Hajvi ahli rasta", Uvaysiyning chistonlari xalq tomonidan sevib o'qilgan. Shoirlar xalqni ilm-ma'rifatga, adolatga, insoniylikka chaqirganlar, ba'zi o'rinlarda o'z asarlarida hokimiyatdagi adolatsizliklar, jaholat, mansabparastlikni tanqid qilganlar.

Adabiy janrlardan g'azal, ruboiy, dostonlar, tarixiy asarlar, diniy- ma'rifiy va axloqiy mavzudagi asarlar keng rivojlangan. Adabiy muhitda shoirlar haqida ma'lumot beruvchi tazkiralar yozilgan.

Masalan, "Tuhfai Guzalo'n" va "Majmuat ush -shuaro" kabi tazkiralar Qo'qon adabiy muhiti haqida muhim manba hisoblanadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Qo'qon adabiy muhiti o'zbek adabiyoti tarixida muhim o'rin egallaydi.

U nafaqat ko'plab shoir va adiblar yetishtirgan, balki o'z davri madaniy- ma'naviy hayotining yuksalishiga ham katta hissa qo'shgan.

Bugungi o'zbek adabiyoti ham ushbu an'analar zaminida rivojlanishda davom etmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'.Boboyorov, F.Xolsaidov .Adabiyot darsligi kasb-hunar maktablari uchun .Toshkent-2006 yil .
2. Q.Yo'ldoshev,B.Qosimov. Adabiyot darsligi 7-sinf Toshkent-2017 yil
3. Internet ma'lumotlari.